

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**UMUMIY O‘RTA TA’LIM TASHKILOTLARI BOSHLANG‘ICH TA’LIM
YO‘NALISHIDAN O‘QITUVCHILARINI ATTESTATSIYADAN
O‘TKAZISH UCHUN MALAKA SINOVIDA FOYDALANILADIGAN
TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN BOSHLANG‘ICH TA’LIM YO‘NALISHIDAN MALAKA SINOV TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishidan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarini attestatsiyadan o‘tkazish malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli hamda baholash mezonini talablarini aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgorlarning boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi o‘qitish metodikasi bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

Ushbu baholash natijalari asosida pedagog kadrlar attestatsiyasida qabul qilinadigan qarorlar asosli bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-79-son farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentyabrdagi 572-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 692-son qarori.

III. Baholash qamrovi

Boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchilari uchun mutaxassislik fanidan 35 ta, kasb standartlaridan 5 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, jami 50 ta test topshirig‘i taqdim etiladi va umumiy test topshirig‘ini bajarish uchun o‘rta hisobda 120 daqiqa vaqt

berilgan. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari(Y1)*), moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari(Y2) va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari(Y3) foydalaniladi.

Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. ONA TILI		12 ta
1.1. Matnni o'qib tushunish		
Ilmiy-ommabop matnni o'qib tushunish	- matn mazmuniga mos ma'lumotni aniqlash; - matn qismlari o'rtasidagi mazmuniy bog'liqliklarni aniqlash; - matn xronologiyasi, ketma-ketligini aniqlash; - matndagi fakt va fikrni farqlash, sabab-oqibatni anglash; - ma'lumotlarni taqqoslash, umumlashtirish va jarayonlar ketma-ketligini tushunish.	5
1.2. Tildan amaliy foydalanish		
Talaffuz va imlo	- talaffuz va imlodagi tafovutlarni aniqlay olish; - bosh harflar, asos va qo'shimchalar, qo'shib, ajratib yozish, chiziqcha bilan yozish kabi imlo qoidalarini bilish, foydalana olish; - fonetik o'zgarishlar (tovush ortishi, almashishi va tushishi)ni farqlay olish;	2
Punktuatsiya	yozma nutqda tinish belgilarini (so'roq, undov, ko'p nuqta; vergul, tire, ikki nuqta; nuqtali vergul, qavs, qo'shtirnoq) to'g'ri ishlata olish;	1 ta
Uslubiyat	-so'z va qo'shimchalarning kontekstdagi ma'nosi va vazifasini tushunish, farqlash hamda to'g'ri qo'llash;	1 ta
1.3. Til nazariyasi va lingvistik tahlil		
Lingvistik tahlil	-gapni hozirgi o'zbek adabiy tili fonetik, leksik me'yorlari asosida tahlil qilish; -gapni so'z tarkibi ko'ra tahlil qilish; - gapni so'z turkumlariga ko'ra tahlil qilish;	3 ta
2. O'QISH SAVODXONLIGI		7 ta
2.1. Badiiy matn tahlili		

Badiiy matn (nasr) tahlili	– matn sarlavhasi uning mazmunini qay darajada ochib berishini muhokama qilish, mos sarlavha tanlay olish; matndagi ma'lum ma'lumotlarni chizma yoki tasvirdan aniqlash; – matndagi davriy izchillik, xronologiya, voqealar ketma-ketligi; – qahramonlarning ruhiy holati va kechinmalarini aniqlash; asarning ikki qahramoni orasidagi munosabatni tasvirlash; hikoya qahramonlarining xatti-harakatlariga muqobil xatti-harakatlarni inobatga olish; – Metafora yoki uslubiyat kabi til vositalari ta'sirini tasvirlash; matnning umumiy mazmuni yoki mavzusini tushunish; matnning aynan qaysi qismi muayyan maqsad uchun xizmat qilishini aniqlash; – muallif tomonidan ilgari surilgan mulohaza insonlarning o'y xayollari va turmush tarzini qay darajada o'zgartirishi mumkinligini baholash; matndan muallifning qarashlari, ochiq aytilmagan fikrlar, g'oyalarni anglash.	5 ta
2.2. O'zbek va jahon bolalar adabiyoti		
O'zbek va jahon bolalar adabiyoti	- umumiy o'rta ta'lim dasturiga kiritilgan xalq og'zaki ijodi namunalarini tushunish, tahlil qilish va baholash - umumiy o'rta ta'lim dasturiga kiritilgan asarlar namunalarini tushunish, tahlil qilish va baholash;	2 ta
3. MATEMATIKA		10 ta
3.1. Sonlar va amallar		
Natural, butun va kasr sonlar ustida amallar	-natural, butun (manfiy, musbat), kasr sonlarni aniqlash va raqamlarning o'rin qiymatini tushunish; - turli turdagi sonlar (natural, butun, kasr) orasida taqqoslash va tartiblanish, amallar tartibini tushunish, bo'linish alomatlarini qo'llash; - masalada formulalarni qo'llab, amallar tartibiga rioya qilgan holda yechimini aniqlash;	4 ta
3.2. Algebraik mulohaza		
Algebraik mulohaza ifodalar va o'zgaruvchilar	-algebraik mulohazani tahlil qilish va berilgan algebraik ifoda tuzish va hisoblash; - tenglama va tengsizlikni tuzish va yechish;	2 ta

3.3. Geometriya va o'lchovlar		
Geometriya va o'lchovlar	-geometrik shakllar va ularning xususiyatlarini bilish, shakl va o'lchamlar orasidagi bog'liqlikni tushunish, berilgan o'lchovlar asosida geometrik masalalar yechish; -uzunlik, vaqt, massa, hajm o'lchov birliklarini aniqlash, o'lchov birliklarini katta yoki kichik o'lchamlariga aylantirish, shakl va o'lchash natijalarini matematik formula bilan ifodalash va turli shakllarning perimetri va yuzi, hajmini o'lchash natijalarining to'g'riligini baholash;	2 ta
3.4. Ehtimollik nazariyasi va ma'lumotlar bilan ishlash		
Ehtimollik nazariyasi va ma'lumotlar bilan ishlash	-ma'lumotlarni turli shakllarda (jadval, diagramma, grafik) o'qish, o'rta arifmetik qiymatni topish, statistika ko'rsatkichlari orasidagi farqni tushuntirish va turli ma'lumotlar to'plami va ehtimollik natijalarini taqqoslash; -mantiqiy mulohaza va arifmetik amallarni integratsiyalashgan kombinatorika masalalarini yechish;	2 ta
4. TABIIY FANLAR		3 ta
4.1. Quyosh sistemasi. Yer yuzasi, tabiiy hududlar		
Sayyoralar. Tabiiy hududlar. Landshaft	-litosfera, gidrosfera, atmosfera qatlamlari va ularda ro'y beradigan tabiiy jarayonlarni ajratish; O'zbekiston Respublikasining chegarasi, ma'muriy-hududiy bo'linishi, iqlimi va resurslarining kompleks geografik tavsifini bilish; -landshaft tarkibiy qismlarini shakllantiruvchi jarayonlarni aniqlash va farqlash;	1 ta
4.2. Hayotiy tizimlar va organizmlar		
Tirik organizmlari tuzilishi, funksiyasi	-o'simlik turlari yashash muhiti, qismlari va asosiy xususiyatlarini bilish; oddiy laboratoriya tajribalarida kuzatuv va o'lchov natijalarini to'g'ri qo'llash; -hayvonot dunyosining klassifikatsiyasini bilish, ekologik muhit va inson faoliyati bog'liqligini tushunish, ozuqa zanjirini amaliy vaziyatda qo'llash; -inson organizmi tizimlari nomi va funksiyalarini bilish. Biologik jarayonlarning (oziqlanish, modda almashinuvi) sodda modellari bilan ishlash;	1 ta
4.3.Fizik xossalar (32-savol)		

Energiya. Yorug'lik. Harakat. Kuch	<i>-berilgan jismlarni fizik xossalari ko'ra guruhlariga ajratish; kuch ta'sirida harakatning o'zgarish sababini tushuntirish; tabiiy hodisalar va jarayonlarning asosiy tushunish; energiyaning turlari va ularning xususiyatlarini farqlash; tabiiy hodisalarning (zilzila, vulqon, shamol, yog'inlar, fasllarning almashinuvi va boshqalar) qanday omillar ta'sirida yuz berishi, hosil bo'lish ketma-ketligini izohlash;</i>	1 ta
5. TARBIYA		3 ta
5.1. Shaxsiy tarbiya va axloqiy qadriyatlar		
Shaxsiy tarbiya va axloqiy qadriyatlar	<i>-milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyatini bilish; to'g'ri va noto'g'ri xatti-harakatlarni ajrata olish; tenglik va haqqoniylik prinsiplari hamda etiket qoidalarini bilish; halollik, vijdon, odob-axloq, hurmat, ichki intizom va mas'uliyat, mehnatsevarlik xislatlarini amalda qo'llash va tahlil qilish;</i>	1 ta
5.2. Ijtimoiy va fuqarolik tarbiya		
Jamiyatdagi vazifalar va huquqlar	<i>-fuqarolik hissi va daxldorlik prinsiplarini real vaziyatlarda qo'llash, fuqarolik huquq va burchlarini farqlash; hissiyotlarni farqlash, jamiyat yoki shaxsiy rivojlanishdagi o'zgarishlarni aniqlash; hamda mustaqil qaror qabul qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari asosida ularni tahlil qilish; tabiatni muhofaza qilish, ekologik barqarorlik munosabatlarini qo'llash;</i>	1 ta
5.3. Madaniyatlararo muloqot va etik qoidalar		
Hayotiy ko'nikmalar va xavfsizlik tarbiyasi	<i>-jamiyat, mahalla, oila va madaniyat tushunchalarini bilish, ularni bir-biridan farqlash, vazifalarini aniqlash; hamkorlik, bag'rikenglik va millatlararo hamjihatlik tushunchalarini farqlash; madaniyatlararo muloqotda odob-axloq qoidalarini qo'llash; diskriminatsiyaga qarshi xulq-atvor, shaxsiy xavfsizlik va sog'lom turmush tarzini tahlil qilish;</i>	1 ta

Matnlarga qo'yiladigan talablar

2-jadval

Matnlar	Mazmunij talablar	Hajmij talablar
Badiiy matn	<i>O'zbek tilida yozilgan (yoki tarjima qilingan) badiiy matn (nasriy asardan parcha) (test topshiruvchi uchun notanish, amaldagi</i>	250-300 so'z

	<i>darsliklarga kiritilmagan)</i>	
Ilmiy-ommabop matn	<i>Akademik uslubda yozilgan, muayyan sohaga bag'ishlangan, keng auditoriyaga (nomutaxassisga) mo'ljallangan, grafik elementlarni ham o'z ichiga olgan ilmiy-ommabop matn (test topshiruvchi uchun notanish, amaldagi darsliklarga kiritilmagan)</i>	100-130 so'z

Kasb standartlari va pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

3-jadval

1. KASB STANDARTI (36 – 40-savollar)		5 ta
1.1. Kasbiy standartlar	– pedagogning kasbiy standartlari (o'quv jarayonini rejalashtirish, ta'lim samaradorligini ta'minlash, o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish, hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik qilish)ni bilish va pedagogik vaziyatlarda qo'llay olish.	5
2. PEDAGOGIK MAHORAT (41 – 50-savollar)		10 ta

2.1. Umumiy pedagogika	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asosiy tushunchalari va kategoriyalari, pedagogik yondashuvlar va ta'lim paradigmalari bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogikaning tamoyillari (onglilik va faollik, ko'rgazmalilik, tizimlilik va muntazamlilik, ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi va boshqalar)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – tarbiya va uning turlarini bilish, bir-biridan farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – dars va uning turlari (yangi bilim berish darsi, mustahkamlash darsi, takrorlash va umumlashtirish darsi, nazorat (tekshirish) darsi, aralash dars; ma'ruza darsi, suhbat darsi, amaliy dars, laboratoriya darsi, mustaqil ish darsi; an'anaviy dars, noan'anaviy dars va boshqalar)ni bilish, darsni rejalashtirish, tashkil etish va sinfni boshqarish yondashuvlarini konkret vaziyatlarda qo'llay olish, ta'lim jarayonini loyihalashtirish va boshqarish, muammoli vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish; – sinf rahbarining huquq va majburiyatlarini bilish, sinf hujjatlari bilan ishlay olish, ularni yuritishda to'g'ri ketma-ketlikka amal qilish, sinf jamoasini to'g'ri shakllantirish, muloqotda pedagogik etika qoidalariga amal qilish, ota-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarini tanlash, muammoli vaziyatda eng maqbul strategik yondashuvni qo'llash; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o'sish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik qobiliyat va uning turlari (didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, perspektiv-pedagogik qobiliyat, nutq madaniyati, baholash madaniyati, texnologik madaniyat, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, avtoritar qobiliyat va boshqalar)ni bilish va konkret vaziyatlarda qo'llay olish, – ta'lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta'lim, muammoli ta'lim, hamkorlikdagi ta'lim, evristik ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interfaol ta'lim, differensial ta'lim, integral ta'lim, o'yinli ta'lim, inklyuziv ta'lim va boshqalar)ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish; – ta'limda baholashning asosiy tushunchalari (baholash maqsadi, tamoyillari, yondashuvlari, baholash turlari (formativ,	7
--	---	----------

	diagnostik, summativ baholash), metod va texnologiyalari, vositalari)ni bilish, berilgan vaziyatga mosini tanlash va baholash bo'yicha qabul qilingan qarorlarning berilgan vaziyatda mosligiga baho berish; – raqamli savodxonlik, sun'iy intellekt, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli platformalar (emaktab.uz va boshqalar) va resurslaridan (Microsoft Office dasturlari, internet tarmog'idan) foydalanishni bilishi.	
2.2. O'qitish metodikasi	– fan mazmun sohasini o'qitish yondashuvlari, metodikasi, o'qitish usullari va metodlarini bilish va farqlash, berilgan vaziyatga mosini tanlash, hamda o'qitish bo'yicha berilgan ta'limiy vaziyatga oid qabul qilingan qarorlarga baho berish.	3
Jami		15 ta

Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

4-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanishini tushunish	8
2	Qo'llash	Bilim, tushuncha va jarayonlarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llay olish	35
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	7

IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy natijasini hisoblash uchun har bir to'g'ri javobga 2 ball, noto'g'ri javob uchun 0 ball beriladi. Umumiy 100 ballni tashkil etadi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. Aydarova U.B, Azizova N.Q: “O‘qish savodxonligi” darslik 1-sinf “Novda” Toshkent - 2024 y.
2. Aydarova U.B, Toirova M.E: “O‘qish savodxonligi” darslik 2-sinf “Novda” Toshkent - 2024 y.
3. Aydarova U.B, Toirova M.E: “O‘qish savodxonligi” darslik 3-sinf “Novda” Toshkent - 2023 y.
4. Aydarova U.B, Toirova M.E: “O‘qish savodxonligi” darslik 3-sinf “Novda” Toshkent - 2023 y.
5. Azimova I, Mavlonova K, Quronov S., Sh.Tursun, N.Hakimova, M.Siddiqov: “Ona tili” darslik 6 - sinf Respublika ta’lim markazi Toshkent – 2022 y.
6. Mavlonova K.M, Hakimova N.S, Siddiqov M.R., Qo‘ldosheva S.H: “Ona tili” darslik 5-sinf. (I, II qism): “Novda” Toshkent – 2024 y.
7. Yo‘ldoshev Q.B., Olimjonov O.O., Yusufjonova N.N., Qambarova S.Q., To‘xliyeva D.B.: “Adabiyot” darslik 5-sinf (I, II qism): “Novda” Toshkent - 2024 y.
8. Mirzayeva Z., Jalilov K.: “Adabiyot” darslik 6-sinf Respublika ta’lim markazi: Toshkent – 2022 y.
- 9.Toirova M. E, Boynazarova D. D: “Ona tili” darslik 3- sinf (1-4 qism) “Novda”: Toshkent - 2023y.
10. Toirova M. E, Boynazarova D. D: “Ona tili” darslik 4- sinf (1-4 qism) “Novda”: Toshkent - 2023y.
11. Repyova I. V: “Matematika” darslik 3-sinf (1-4 qism) “Novda”: Toshkent - 2023y
12. Repyova I. V: “Matematika” darslik 4-sinf (1-4 qism) “Novda”: Toshkent - 2023y
13. Usmanova O. V, Risyukulova Y. V: “Tarbiya”darslik 1- sinf “Novda”: Toshkent - 2024y.
14. Usmanova O. V, Risyukulova Y. V: “Tarbiya”darslik 2- sinf “Novda”: Toshkent - 2023y.
15. Usmanova O. V, Risyukulova Y. V: “Tarbiya”darslik 3- sinf “Novda”: Toshkent - 2023y.
16. Usmanova O. V, Risyukulova Y. V: “Tarbiya”darslik 4- sinf “Novda”: Toshkent - 2023y.
- 17.Tigay O.E, .Malikova Y.V, Kosyanenko S.V: “Tabiiy fan” darslik 1-sinf “Novda”: Toshkent - 2024y.

18. Tigay O.E., Malikova Y.V., Kosyanenko S.V.: “Tabiiy fan” darslik 2-sinf “Novda”: Toshkent - 2023y.

19. Tigay O.E., Malikova Y.V., Kosyanenko S.V.: “Tabiiy fan” darslik 3-sinf “Novda”: Toshkent – 2023 y.

20. Tigay O.E., Malikova Y.V., Kosyanenko S.V.: “Tabiiy fan” darslik 4-sinf “Novda”: Toshkent – 2023 y.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K.: “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati” G‘.G‘ulom: Toshkent – 2022 y.

2. Begmatov E.A., Madvaliyev A.R., Odilov Y.R. “O‘zbek tilining katta imlo lug‘ati” “Kafolat print company”: nashriyoti Toshkent – 2023y.

3. Madvaliyev A., Mahkamov N., Xudoyberganova D., Odilov O.: “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” “O‘zbekiston nashriyoti” Toshkent – 2021y.

VIII. Pedagogik mahorat va kasb standartlari bo‘yicha manbalar

1. Mavlonova R.A., Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – 528 b.

2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: “Bayoz” nashriyoti, 2025. – 504 b.

3. Tolipov O‘., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Innovatsiya-ziyo” nashriyoti, 2019. – 276 b.

4. Sh. Abdiraimov v.b. Ta’limda baholash va monitoring asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, TDYU nashriyoti, 2026. – 208 bet.

5. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisi kasb standarti.

6. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Saryiev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –Toshkent.: Bayoz, 2022. – 304 b.

7. Jumayev M. E., Tadjiyeva Z. G‘.. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. –Toshkent.: Bayoz, “Bayoz”- 2022

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.